





## **Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?**

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki chet el investitsiyalari qo'shimcha moliyaviy manba bo'libgina qolmay, yangi texnologiyalar, bilim, ko'nikmalar, faoliyat yuritish amaliyoti va yangi boshqaruv standartlari manbaidir. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ular uchun shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor berib kelmoqda. So'ngi yillarda bu sohada ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, qonunchlik soddalashtirildi, investorlarning huquqlarini himoya qilishning yangi kafolatlari ishlab chiqildi, xalqaro va mintaqaviy hamkorlik faollashtirildi.


Buning natijasida, O'zbekistonda 2021-yilda **11 milliard AQSH dollariga teng miqdorda xorijiy investitsiyalar** o'zlashtirildi. Buning **9,8 milliard dollarini asosiy kapitalga investitsiyalar** tashkil etdi va bu 2020-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 10% ko'p. 2021-yilda xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitaldagi ulushi jami o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining **42,3%** ini tashkil etdi. Respublika iqtisodiyotiga jami **50 dan ortiq** davlatlar investitsiya kiritgan bo'lib, ularning orasida Xitoy (2,2 mlrd. doll.), Rossiya (2,1 mlrd. doll.), Turkiya (1,18 mlrd. doll), Germaniya (800,7 mln. doll.), Janubiy Koreya (137,4 mln. doll.) yetakchilik qilmoqda.<sup>1</sup>

Shu bilan birga, xorij kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalarining respublika iqtisodiyoti rivojida tutgan o'rni qanday ekanligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2017-2021 yillar oralig'ida xorijiy kapital ishtirokidagi **korxonalar soni 2,7 baravar** ortgan. 2017-yil boshida ushbu ko'rsatkich 5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil boshiga kelib, ularning soni ochilgan korxonalar hisobiga 13,2 mingtaga yetdi. 2022-yil 1-yanvar

---

<sup>1</sup> <https://sda.gov.uz/ru/news/3531>


holatiga ko'ra, xorijiy kapital ishtirokidagi 13,2 mingta korxonaning 6 mingtasi **qo'shma korxonalar** va 7,2 mingtasi **xorijiy korxonalar** hisoblanadi.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar asosan Toshkent shahri (62,4%), Toshkent (11,1%) va Samarqand (5,0%) viloytlarida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari (1,3% dan), Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida (1,6% dan) bunday korxonalar biroz kamroq. Bu esa mazkur hududlarda chet el investitsiyalarini jalb qilish hamda xorijiy investorlar bilan ishlashni kuchaytirish zarurligiga ishora.

Bugungi kunda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning *iqtisodiy faoliyat turlari* bo'yicha hissasi sanoatda 30,6% ni, savdoda 28,5% ni, qurilishda 8,3% ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida 5,4% ni, yashab turish va ovqatlanish muassasalarida 4,1% ni, saqlash va tashish sohasida 2,7% ni, aloqa va axborot yo'nalishida 3,0% ni, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tarmog'ida 1,6% ni, boshqa sohalarda 15,8% ni tashkil etadi.

2021-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning **jami xorijiy investitsiyalar va kreditlardagi ulushi 36,5% ga** va **to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlardagi ulushi 43,9% ga** yetdi.



Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6%i mehnat qilsada, ushbu turdagi korxonalar jami ishlab chiqarish hajmining 15% ini va asosiy kapitalga investitsiyalarning 24% ini ta'minlaydi.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mamlakat tashqi savdo faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu turga mansub korxonalar respublikadagi jami korxonalarining 2,5% ini tashkil qilsada, 2021-yil yakunlariga ko'ra, ularning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 19,8%ga, eksportida 19,7%ga va importida 25% ga teng.

Ayni turdagi korxonalar to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksportida asosiy rol o'ynaydi (respublika bo'yicha jami eksport haminig 44,3%i). Shu bilan birga, kimyo mahsulotlari (33,5%), mashina va uskunalar (17,3%), qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (35,7%), xizmatlar (27,3%) va oziq-ovqat mahsulotlari (24,2%) eksportiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga jami import

qilinadigan rangli va qora metallarning 45%i, kimyoviy mahsulotlarning 33%i, asbob-uskunalarining 25%i, oziq-ovqat mahsulotlarining 20%i to'g'ri keladi.

Shuningdek, bu yo'nalishdagi korxonalar tashqi savdo aylanmasida 30% miqdorida manfiy saldo kuzatilmoqda. Ular eksportining asosini to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari (taxminan 40%), xizmatlar (21%), kimyo mahsulotlari (12%) va oziq-ovqat mahsulotlari (10%) tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu korxonalar importining asosiy qismi mashina va asbob-uskunalar (36,6%), kimyo mahsulotlari (22%), qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (14%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mazkur holat bir tarafdin, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faoliyati ichki bozorga yo'naltirilganligi va eksport faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etish darajasi pastligini ko'rsatadi. Chunki eksport asosan qo'shilgan qiymati past bo'lgan mahsulotlarga qaratilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyati tahlili ular respublikadagi eng faol va eng samarali xo'jalik yurituvchi subyektlar ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq, ularning salohiyatidan, asosan eksportda, hanuzgacha yetarli darajada foydalanilmayapti. Shuningdek, korxonalar soni ham ko'p emas.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning respublika iqtisodiyotidagi rolini oshirish uchun ularning eksport faoliyatiga, jumladan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti

100011, O'zbekistan Respublikasi, Toshkent sh., Xadra mavzesi, 33-uy

E-mail: [info@ifmr.uz](mailto:info@ifmr.uz)